

# "Uzbekistan Airways" aviakompaniyasi qatnovlariga aviachiptalarni telegram bot yoki CLICK ilovasi orqali 2% gacha keshbek bilan sotib oling!

2021.17. February



"Uzbekistan Airways"

aviakompaniyasi CLICK to'lov tizimi bilan hamkorlikda "Uzbekistan Airways" qatnovlariga aviachiptalarni sotib olish xizmatini kengaytirmoqda.

CLICK Evolution mobil ilovasi va Telegram botidagi qulay va moslashuvchan qidiruv tizimi sizga eng yaxshi variantlarni topishga va to'lovni dasturdan chiqmasdan darhol amalga oshirishga yordam beradi.

Buning uchun faqat @clickuz telegram botiga kirib, "To'lov" bo'limiga o'ting va "Aviachiptalar" toifasini tanlang.

Xizmat ikkita variantni taklif qiladi:

- bir tomonga aviachiptani sotib olish;
- Ikki tomonga aviachiptani sotib olish;

So'ngra, foydalanuvchi jo'nash va yetib borish shaharini, shuningdek parvoz sanasini va yo'lovchilar sonini tanlashi kerak.

Shaxsiy ma'lumotlar to'ldirilgandan so'ng aviachipta bron qilinadi va to'lov jarayoniga o'tiladi. To'lov muvaffaqiyatli amalga oshirilganidan so'ng, aviachipta yo'lovchining bron qilish vaqtida ko'rsatilgan elektron pochta manziliga yuboriladi.

To'langan aviachipta uchun keshbek foydalanuvchining CLICK hamyoniga tushadi.

Aviachiptalarni yangi, qulay xizmat orqali foyda bilan sotib oling!

Sizga yoqimli va xavfsiz parvoz tilaymiz!